


Yig'ilishda g'alla qabul qilish punktlari sonini kamaytirish va keyingi yildan boshlab ularni xususiylashtirish chora-tadbirlari belgilandi.



“Hokimlar bir narsani aniq tushunib olishlari zarur. Bug'doyning haqiqiy egasi bu – fermer va klasterlar.

Shuning uchun, bundan buyon tumanda reja bajarilmayapti, chorva, parranda yoki baliqchilikka ozuqa-yem kerak, degan vajlar bilan fermerlar g'allasini olib qo'yish qat'iy qat'iylashtiriladi.

Bundan tashqari, birja orqali sotilgan bug'doyga hududlararo cheklov qo'yilmaydi. Marhamat, qaysi hududdagi korxona birjada yutib olsa, hech qanday to'siqlarsiz g'allani olib ketishi mumkin”, dedi Prezident.

Bosh prokuror, viloyat, tuman va shahar prokurorlari bu masalani shaxsan nazoratiga olib, fermerni norozi qilgan rahbarlarga qat'iy choralar ko'rib borishi kerakligi ko'rsatib o'tildi.